

# Yashil

IQTISODIYOT  
TARAQQIYOT  
va

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2  
0  
2  
4



No 9

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'sratish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

# **Yashil**

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 526 sahifa.*

*E'lon qilishga 2024-yil 7-sentyabrda ruxsat etildi.*

**Bosh muharrir o'rinnbosari:**

Karimov Norboy G'aniyevich

**Muharrir:**

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

### **Tahrir hay'ati:**

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lif muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUpfessori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Uteyev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokururaturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokururaturasi IJQKD boshlig'i

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Musayeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori

Cham Tat Huei, ( PhD) USCI universiteti professori, Malayziya

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi

Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Ali Konak (Али Күнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya

Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Editorial board:**

**Salimov Oqil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Rae Kwon Chung**, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

**Osman Mesten**, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Buzrukhanov Sarvar Khan Munavvar Khanovich**, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oly Majlis of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Sayfullo Normatovich** CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

**Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich**, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

**Siddikova Sadokat Ghaforovna**, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Samadov Askarjon Nishonovich**, CSc, Prof., of TSUE

**Slizovsky Dimitriy Yegorovich**, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

**Akhmedov Ikrom Akramovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli**, DSc, Prof., of TSUE

**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

**Ochilov Farkhad**, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

**Eshtayev Alisher Abduganievich**, DSc, Prof., of TSUE

**Shoira Azimovna Musaeva**, professor of SamDu IS Institute

**Cham Tat Huei**, PhD, professor at USCI University, Malaysia

**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

**Judy Smetana** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Chrissy Lewis** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Ali Konak** DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

**Glazova Marina Viktorovna**, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, associate professor of TSUE

**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, independent researcher of TSUE

## **Ekspertlar kengashi:**

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, t.f.d., profesor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, f.f.d., TDIU professori  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, i.f.d., TDIU professori  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, i. f. n., TDAU dotsenti  
**Rustamov Ilhomiddin**, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, i.f.d, TDIU dotsenti  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, p.f.f.d., (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, i.f.f.d, TDIU dotsenti  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, i.f.d., TMI dotsenti  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

## **Jurnalning ilmiyligi:**

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali  
O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro‘yxatdan  
o’tkazilgan.

**Muassis:** “Ma’rifat-print-media” MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR  
Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokururatasи huzuridagi IJQK  
departamenti.



# MUNDARIJA

Innovatsion siyosatni amalga oshirish yo'nalishlari.....	16
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, Zaynudinova Umida Djalolovna	
Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishning bozor mexanizmlari va ularni joriy etishdagi muammolar .....	21
Yusupov Shoxzod Maxmatmurodovich	
Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish davrlari ekonometrik modelini yaratish masalalari.....	24
Abdullahayev Farxod Ozodovich	
Marketing yondashuvi asosida Sirdaryo viloyatining investitsion salohiyatini baholash usullari.....	35
Xolmurotova Diyoraxon Ibragimovna	
Bevosita soliqlar ma'muriyatichiligi.....	41
Idrisov Alisher Otajonovich	
Soliq nazorati va transfert narxni belgilashda soliqlarini tashkil etishning xorij tajribalari.....	46
Abdiev Jaxongir Ibragimovich	
Soliq siyosati va strategiyasining ilmiy-nazariy tahlili.....	53
Djumaniyazov Marks Quranbaevich	
Pestel tahlili – muvaffaqiyatlari investitsiya qarorlarini qabul qilish asosi .....	60
Shaislamova Nargiza Kabilovna	
Tijorat banklari tomonidan biznes loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos xususiyatlari .....	67
Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li	
The significance, problems and solutions of the green economy in the New Uzbekistan economy.....	74
Sattorova Mehriniso, Ibragimova Gulchehra Tohirovska	
O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni soliqqa tortishning joriy qilinishi va rivojlanish tendensiyasi .....	79
Otamuradov Nuriddin Najmiddinovich	
Korporativ boshqaruvni innovasion rivojlantirishda raqamli texnolgiyalardan foydalanishning nazariy asoslari .....	87
Xalmuradov Elmurod Dilmuradovich	
Международный опыт стимулирования инновационной деятельности.....	93
Абдиуалиева Гулзада Азатовна	
How does foreign direct investment promote economic growth? .....	98
O'tkirova Bonu Azamat kizi	
Mintaqalarni barqaror rivojlantirishning konseptual asoslari va ular evolyutsiyasi.....	102
Umarov Abduvaxob Tursunovich	
Technological Innovations of Electronic Payment Systems.....	107
Mirkomil Boboyorov Murodullaevich	
Ta'lim xizmatlari sohasida davlat-xususiy sherikligining rivojlanishida xorij tajribasining o'rni va ahamiyati.....	115
Imomov Xolmurod Norqul o'g'li	
O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiya va xorijiy kreditlar jalb qilish samaradorligi tahlili .....	119
Maksudov Abdumalik Xodievich	
Davlat ehtiyojlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilishni takomillashtirish .....	124
G'ofurov Temur Baxrom o'g'li	



Mamlakatimizda oziq-ovqat sanoatini rivojlanish holati va uning dolzarbligi .....	129
Turg'unov Muxiddin Mo'ydinjon o'g'li	
Turizmda innovatsiyalarni qo'llash imkoniyatlari.....	133
Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li	
Davlat budgetining soliqli daromadlari tahlili .....	139
Abduraimova Nigora Radjabovna	
Soliq yuki soliq tizimining qanchalik samarali ekanligini aniqlovchi muhim mezon .....	143
To'lakov Ulug'bek Toshmamatovich	
O'zbekiston sanoat korxonalarida xom ashyo resurslaridan samarali foydalanishning hozirgi holati, muammolari va mintaqaviy xususiyatlari (qashqadaryo viloyati misolida) .....	151
Ochilov Akram Odilovich, Xazratov Sarvar Ibragimovich	
Cостояние туристической инфраструктуры Ташкентской области.....	156
Гаппарова Майрамхон Зафар кизи	
Sanoatlashuvning ekologik ta'siri va "yashil" iqtisodiyotga o'tishning asoslari .....	161
Nosir Maxmudov, Lola Azimova	
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda sinergetik ta'sirning nazariy asoslari .....	167
Maxmudova Zoxida Maqsudali qizi, Normurodov Xusan	
Davlat budgeti xarajatlaridansamarali foydalanishni takomillashtirish.....	173
Sherxon Tuychiyev	
Savdo korxonalarida ta'minot zanjirining asosiy bosqichlari va muammolari.....	177
Ergashev Jahongir Baxodirovich	
Kichik biznes subyektlarining innovatsion loyihalarni moliyalashtirish yo'llari .....	180
Ergashev Firuz Baxodirovich, Ishturdiev Hasan Abdigapparovich	
Budget tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash xarajatlari hisobining asoslari.....	184
Azizova Zilola Lochin qizi	
Xorijiy mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlari tomonidan mahalliylashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarishning o'ziga xos jihatlari .....	191
Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich	
Suv ekologiyasining asosiy yo'nalishi va uning fandagi o'rni.....	200
Musayeva Muqaddas Abdurashid qizi	
Анализ прибыли агропромышленности .....	204
Гафурова Азизахон Фатиховна	
Systematic analysis of briquette mass pressing equipment approach .....	209
Kobilov Khasan Khalilovich, Sharipova Nazira Rakhmatilloyevna	
An Econometric Assessment of the Effects of Fintech on Economic Growth in Developed Countries .....	213
Anvarkhonov Abdulatifkhon Jamshidkhon ugli	
Raqamli iqtisodiyot rivojida korporativ boshqaruva faoliyatining roli .....	216
Muxitdinov Ulug'bek Diyarovich	
Значение промышленной сети в развитии деятельности предприятий малого бизнеса.....	221
Кодиров Жавлонбек Нематуллаевич	
Tadbirkorlik kambag'allikni qisqartirishning asosiy yo'nalishi.....	225
Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich	
Kichik biznes subyektlarida mahsulot ishlab chiqarishda innovatsiyani joriy etish masalalari.....	230
Mirzayev Kobil Nosirjonovich	
Investisiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarini rivojlantirish mexanizmlari.....	236
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	



Innovasion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida sifat menejmentini joriy etishning nazariy-uslubiy masalalari.....	242
Zarina Ashurova	
Social media marketing strategies for small businesses.....	247
Mannonov Shahzod Istam ugli	
Xalqaro shartnomalar qoidalarini qo'llashning xalqaro va milliy uslubiy tamoyillarining o'zaro ta'siri .....	250
Rajapov Shuxrat Zaripbaevich	
Neft-gaz, yoqilg'i energetika sanoati sohasidagi yirik soliq to'lovchilarda soliq nazoratini samarali tashkil etish va takomillashtirish masalalari .....	258
Abdullaev Shuxrat Sultanbaevich	
Cуть и значимость инновационных технологий в региональном управлении .....	266
Муминов Фазлиддин Хусниддин угли	
SWOT-анализ использования социальных сетей в туристической индустрии узбекистана .....	279
Касимова Зилола Гуламиддиновна	
Germaniya tajribasidan foydalanish orqali o'zbekistonda turizm sohasidagi kadrlar salohiyatini rivojlantirish masalalari .....	287
Xamidova Mo'tabarxon Abdumalik qizi, Ochilov Akram Odilovich	
Blockchain texnologiyasining bank operatsiyalari xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni .....	291
Mirpulatova Luiza Mansurovna	
Tijorat banklarini reytingini aniqlashda bankometr modelidan foydalanish yo'llari .....	294
Karabaev Nodir Abduhamidovich	
Zначение business city как инфраструктурного объекта .....	303
Солиева Умида Алишер кизи	
The potential for the development of wage labor as a factor .....	308
Usmanov Ilkhom Achilovich	
Ways to improve the organizational and economic mechanism of business tourism in Uzbekistan.....	312
Musayeva Shoira Azimovna, Usmanova Dilfuza Ilkhomovna	
Kichik biznes subyektlarining faoliyatini baholashning metodologik asoslari .....	318
Mavrulov Ravshan Ne'matjonovich	
Kichik korxonalarini rivojlantirishda xorij tajribalaridan foydalanish.....	324
Ergasheva Nigora Abdigapparovna	
Mamlakatimizda intensiv baliqchilikni rivojlantirishning dolzARB masalalari .....	328
Mamatqulov Nurbek O'razali o'g'li	
Уменьшение выбросов парниковых газов и переход к возобновляемым источникам энергии .....	331
Р.Т. Шомуродов, И.И. Бахадиров, Р.Т. Умаров, И.Ш. Жамолиддина	
Ipoteka bozorida investision muhitni yaxshilash yo'llari.....	341
Abdullaev Muhammadsodiq Isroil o'g'li	
Muammoli kreditlar: yechimlari va istiqbollari.....	346
Kalandarov Abdulla Baxtiyorovich	
Ishlab chiqarish korxonalarida risklarni boshqarish va ta'sirini baholash uslubiyati.....	351
Muxitdinov Shuhrat Ziyaviddinovich	
Zamonaviy sharoitda PR (jamoatchilik bilan aloqalar)ning mazmuni va ahamiyati.....	356
Ergasheva Fotimaxon Ibragimovna	
O'zbekiston moliya tizimida mahalliy molianing o'ziga xos xususiyatlari .....	361
Xikmatillayeva Dildora Shavkat qizi	



Rahbar kasbiy motivatsiyasini rivojlantirish ko'nikmalarini takomillashtirish .....	366
<b>Shadiyev Sherzod Fayzullayevich</b>	
Improvement of marketing communication strategies in chemical industry enterprises .....	375
<b>Muminova Dildora Dilshadovna</b>	
Mikromoliya tashkilotlarida islom moliyaviy instrumentlarini joriy etishni takomillashtirish.....	380
<b>Axmedova O'g'ilshod Musurmonqul qizi</b>	
Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflashning nazariy jihatlari.....	384
<b>Qodirova Nafisa Ilhomovna</b>	
Importance-performance analysis as a useful tool for marketing audit processes of HEIs in Uzbekistan .....	388
<b>Nurillo Umarkhonov</b>	
Тенденции энергетики будущего: шаги в новую фазу .....	396
<b>Абдураимова Нигора Раджабовна</b>	
Chet mamlakatlar pensiya tizimining o'ziga xos xususiyatlari.....	405
<b>Tursunov Zohidxo'ja Orifovich</b>	
Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklar faoliyatini statistik tadqiq etish xususiyatlari.....	412
<b>Kutliyev Dilshod Orifovich</b>	
O'zbekistonda suv tanqisligining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishgata'siri.....	419
<b>Maxmudov Nosir Maxmudovich, Alimova Guzal Alisherovna</b>	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotning kelajak istiqbollari .....	424
<b>Egamberdiyev Humoyun</b>	
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish va eksport qilishning holati hamda rivojlanish istiqbollari (namangan viloyati misolida).....	433
<b>Jo'raboyeva Shohida Kamoliddin qizi</b>	
Kichik korxonalarни rivojlantirishdagi muammolarini va ularning yechimlari.....	439
<b>Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li, Ergasheva Nigora Abdigapparovna</b>	
Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribasi .....	422
<b>Xaydarova Charos Nizomiddin qizi</b>	
Namangan viloyati kichik biznes subyektlari faoliyatida real investitsiyalarning samaradorligini ekonometrik baholash.....	448
<b>E.S.Jurayev</b>	
Hududlarni iqtisodiy rivojlanishida investitsiyalar ko'rsatkichi tahlili (Sirdaryo viloyati misolida).....	454
<b>Karimqulov Jasur Imomboyevich, Alimova Dilafro'z Tohir qizi, Qurbanova Shahnoza Yuldasbayevna</b>	
Fiskal avtomatik stabilizatorlarning iqtisodiyotga ta'siri.....	462
<b>Madaminova Maftuna</b>	
"Yoshlar daftari"ning yuritish tizimini takomillashtirish yo'nalishlari .....	467
<b>Turaeva Laylo Toshpulotovna</b>	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga sarmoya kiritishning hozirgi holati va istiqbollari: barqaror rivojlanish sari.....	470
<b>Malikov Nu'monjon Kamalovich</b>	
Korxonalarda innovatsion funksiyalardan samarali foydalanish yo'llari .....	474
<b>Samaroxonov Asqarxon Jamolxon o'g'li</b>	
Davlat banklarining rivojlanish vektori – aholini tadbirkorlikka jalb qilish va mikroloyi halarni moliyalashtirish (biznesni rivojlantirish banki misolida).....	479
<b>Radjabov Abdullaiziz Atoevich</b>	
Moliyaviy qarorlar qabul qilishda korporativ axborotlarning muhimligi .....	483
<b>Radjabova Dildora Atoevna</b>	



Bank sohasida “Risklarni boshqarish” tushunchasining nazariy asoslari va uning xizmatlar samaradorligiga ta’siri .....	486
Saidov Jasurbek Latipbaevich	
O’zbekistonda qo’shilgan qiymat solig’ining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....	498
Babajanov Davronbek Jumamuratovich	
Foydali qazilmalarning nazorat ishlarini tashkil etgan xolda soliq bazasini kengaytirish yo’llari .....	505
Abduraxmanov Karomat Erkinovich	
Ichki audit xizmatini tashkil etish va uning samaradorlikka ta’sirini baholash .....	511
Alimardonov Muxammadi Ibragimovich, Djalilova Malika Shuxratovna	
O’zbekistonda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (mhxs)ga o’tish bosqichlari va uning tadrijiy rivojlanishi .....	516
Mirzaxidov Abdugafir Yuldashevich	
Korporativ ijtimoiy mas’uliyat va uning jamiyatga kirib kelishi .....	522
Raxmatov Ziyodullo Nosirovich, Odilov Ahmadjon Komiljon o’g’li	

# MUNDARIJA CODERJAHNIYE CONTENTS



# KORPORATIV IJTIMOIY MAS'ULIYAT VA UNING JAMIYATGA KIRIB KELISHI



## Raxmatov Ziyodullo Nosirovich

Toshkent davlat transport universiteti  
“Korporativ boshqaruv” kafedrasi mudiri,  
PhD (dotsent)  
ORCID: 0000-0002-8819-1678

## Odilov Ahmadjon Komiljon o'g'li

Toshkent davlat transport universiteti  
magistratura bo'limi talabasi  
ORCID: 0000-0002-7434-8347

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada korporativ ijtimoiy mas'uliyat tushunchasi, uning tarixi, xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan berilgan fikrlar, tadqiqotlar va ta'riflar berilgan. Shu bilan birgalikda, hozirda KIMning mahalliy olimlar tomonidan o'r ganilish hamda qo'llanilish darajasi ham yoritib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** korporativ ijtimoiy mas'uliyat, ijtimoiy mas'uliyat, biznes, korporativ boshqaruv, KIM.

**Abstract:** This article presents the concept of corporate social responsibility, history, opinions, research, and assessments of foreign scientists. Finally, local scientists and companies' research and taking of CSR is noted.

**Key words:** corporate social responsibility, social responsibility, business, corporate governance, CSR.

**Аннотация:** В данной статье представлено понятие корпоративной социальной ответственности, ее история, мнения, исследования и оценки зарубежных и отечественных ученых. При этом отмечен уровень изучения и использования КСО отечественными учеными и компаниями.

**Ключевые слова:** корпоративная социальная ответственность, социальная ответственность, бизнес, корпоративное управление, КСО.

## KIRISH

Dunyo kundan kunga o'zgarib bormoqda. Barcha narsa atrof-muhit, jamiyat, boshqaruv prinsiplari, turmush tarzi, resurslar va boshqalar shular jumlasidandir. Bu, o'z navbatida, biznesning faoliyatiga katta ta'sir etmoqda. Ya'ni oldingidek biznesning rivojlanishini, mavqeyini, brendini faqatgina kuchli sotuv yoki xizmat ko'rsatish va uning natijasida olinadigan daromadi belgilab bermayapti. Jahonda biznesning darajasini turli ko'rsatkichlar belgilab bermoqda. Bulardan biri ya'ni ko'pgina unsurlarni soyabon shaklida umumiylashtiradigani korporativ ijtimoiy mas'uliyat (KIM) hisoblanadi[1].

KIM konsepsiyanining ildizlari chuqur tarixga borib taqalsada, uni ilmiy jihatdan o'rganish 1950-yillardan boshlangan desak mubolag'a bo'lmaydi. Lekin biz uni to'liqroq tushunish va anglash uchun ancha oldingi davrlardan boshlaymiz.

Milodiy VII – VIII asrlarda arab diyorlarida islom dinining kirib kelishi va uning rivojlanishi ijtimoiy mas'uliyatning rivojlanishiga sabab bo'lgan deya olamiz. Olimlarning o'rganishlariga ko'ra, Islom dinida bu bo'yicha keraklicha oyat va hadislar mavjud. Qur'onning quyidagi joylarida (47:38; 9:99; 64:16; 2:261; 2:271; 17:100;



64:17-18; 59:7 va 34:39) ijtimoiy mas'uliyat to'g'risida aytib o'tilgan [2]. Shu asosda qadimgi islom davlatlarida ijtimoiy mas'uliyat bo'yicha alohida ishlar amalga oshirilgan. Xalifalar tomonidan ta'lif muassasalarini qurilib, ulardagi ustozlar moliyalashtirilib turilgan va shuning asosida jahon sahnasi o'z davrining eng birinchi universitetlari paydo bo'lgan. Al-azhar universiteti [3], Nizomiya madrasasi [4], Baytul hikma akademiyasi [5], Xorazm ma'mun akademiyasi shular jumlasidandir. Hozirgi kunda rivojlangan Yevropa va AQSH singari mintaqalarga qaraydigan bo'lsak, ijtimoiy mas'uliyat masalalariga e'tibor, asosan, sanoat inqilobidan so'ng boshlanganini guvohi bo'lamiz. Ya'ni 1800-yillarning oxirlarida fabrikalar ishchilarning ish unumdorligini oshirish uchun turli ijtimoiy siyosatlarni qo'llab ko'rishgan, bu esa jamiyatga nisbatan birinchi ijtimoiy mas'uliyat bo'lib xizmat qilgan. Menejment bo'yicha tarixchi Daniel A.Wrenning yozishicha, "Buyuk Britaniya va AQSHdagi fabrikalarda ish muhiti juda ham ko'plab ijtimoiy muammolarning, jumladan, mehnat tartibsizliklari, qashshoqlik, xarobaliklar, ayollar va bolalar mehnatining asosi (manbasi) hisoblangan". Wren o'sha davrdagi sanoatni yaxshilashni (farovonlik) gumanitar (humanitarianism), xayriya va ishbilarmonlikning notekis aralashmasi deb ta'riflaydi. Buning yorqin namoyondasi sifatida John H. Pattersonni keltiradi. Uning sanoatdagagi ijtimoiy muhitni yaxshilashdagi sxemasini, ya'ni fabrikalarda shifoxonalar, hammomlar, oshxonalar, ishchilarning foyda taqsimotida ishtiroy etishi, dam olish xonalari va boshqalarni keltiradi [6]. Ishchilarga g'amxo'rlik qilish barobarida XIX asrning oxirlarida xayriya (philanthropy) ham keng qo'llanila boshlandi. Keyingi o'rnlarda qaraydigan bo'lsak, Endryu Karnegi (1835–1919) AQSH va boshqa mamlakatlarda 2500 dan ziyod kutubxonalarini moliyalashtirgan [7]. John D.Rockfeller (1839–1937) Rokfeller fondiga asos solib zamonaviy tibbiyot, oliy ta'lif va ilmiy tadqiqotlarga mablag' ajratgan. O'sha davrda 450 mln AQSH dollarini tibbiyotga ajratgan [8]. Ford fondi inson huquqlari va demokratiyani rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, yosh liderlarni AQShda ta'lif olishlariga imkon bergen. Shu bilan birgalikda, Yevropadagi tadqiqot muassasalariga moliyaviy ko'mak bergen [9]. Wren o'z tadqiqotlarida "XIX asrni yuridik nuqtayi nazardan korporativ xayriya (corporate philanthropy) deb yakunlasa bo'ladimi deb savol qo'yadi", lekin keyingi bir qancha misollar teskari natijani ko'rsatadi. Shunga qaramay Archi B.Kerrollni yozishi bo'yicha o'sha davrlardan yakka tartibdagagi tadbirkorlar va yirik biznes egalari ko'p yillar davomida o'z mablag'laridan bugungi kunda ijtimoiy mas'uliyat deb tasniflanishi mumkin bo'lgan ijtimoiy maqsadlarni qo'llab-quvvatlash uchun mablag' ajratgan. Bir narsani unutmaslik kerakki, bu davrda O'zbekiston hududlarida ham jadidchilik keng tarqala boshlagan bo'lib, ular, o'z navbatida, har xil hayriya jamg'armalalarni tashkil eta boshlashadi. Toshkentda 1909-yilda "Ko'mak", 1913-yilda "Dorilu ojizin", Buxoroda 1910-yilda "Tarbiyai atfol" xayriya jamiyatlarini tashkil etiladi. Bularidan asosiy maqsad jadid maktablariga yordam berish va iqtidorli yoshlarni xorijga o'qishga yuborish bo'lgan [10]. Sofiya Myurxedning ta'kidlashicha, 1870-1930-yillarda filantropiya yoki korporativ xayriyalar KIMning rivojanishiga katta ta'sir o'tkazgan [11]. Hozirgi kunlarda ham ham bu ishlar davom etib kelmoqda. "Lukoyl" OAJ o'zining bo'limlari joylashgan mintaqalardagi bolalar bog'chalari, ta'lif va tibbiyot muassasalarini turli tomondan qo'llab-quvvatlashadi. Pirovardida bunday ishlar, mintaqadagi xodimlarning oila a'zolariga sifatli ta'lif va tibbiyot xizmatlarini taqdim etadi, yosh sifatli kadrlarni kashf etib kompaniyaga qo'shami, xodimlar sodiqligini oshiradi. Buyuk Britaniyadagi "Tesco" kompaniyasini ko'radigan bo'lsak, ular quyidagicha usulni yo'lda qo'yishgan: "Tesco" kompyuter va qurilmalarini sotib olgan har bir xaridorga kompaniya kupon (vaucher) beradi, xaridor u kuponni istalgan maktabga topshirishi mumkin va maktab to'plangan kuponlar evaziga kompaniyadan yangi kompyuer oladi. Mahalliy tadbirkorlar ham hozirgi kunda korporativ xayriyalar bo'yicha bir qancha ishlarni amalga oshirib kelishmoqda, ko'p hollarda KIM mutaxassislari tomonidan bu loyihalarga salbiy munosabat bildirilmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ilmiy ishlar nuqtayi nazardan qaraydigan bo'lsak, ijtimoiy mas'uliyat XX asrning 30-40-yillarida tilga olina boshlangan, ularning ichida Chester Barnardning "ijrochining funksiyalari" asari (1938), J.M. Klarkning "Biznesning ijtimoiy nazorati" asari (1939), Teodor Krepsning "Biznesning ijtimoiy samaradorligini o'Ichash" (1940), shuningdek, Xovard Bouenning "Tadbirkorning (biznesning) ijtimoiy mas'uliyati" (1953), Peter Drukerning "Amaliy menejment" (1954) asarlari eng birinchi asarlardan hisoblanadi. Bularning ichida X.Bouenning asari eng ahamiyatli adabiyotlardan sanalib, ijtimoiy mas'uliyat uchun doktrina sifatida qabul qilinib kelmoqda va hozirgi kungacha KIMning barcha ilmiy-amaliy savollariga javob topib kelmoqda. KIMning qay darajada kompaniyaga qabul qilib uni amaliyot bilan bog'langanligi bo'yicha Morell Healdning "Biznesning ijtimoiy mas'uliyati: kompaniya va jamiyat 1900-1960-yillar" kitobi (1970)da ko'rishimiz mumkin. Unda ijtimoiy mas'uliyat bo'yicha hech qanday yangi nazariy ma'lumotlar ketmagan bo'lsada, ushbu kitobning Bouen taklif qilgan nazariya bilan izchil bog'liqligi aniqlangan. 1950-yillardagi muhim ilmiy ishlarga Selekmennning "Menejmentning axloqiy bosh-qar уни" (1959), M.Healdning "Menejmentning jamiyat oldidagi mas'uliyati:g'oyaning o'sishi" (1957) va Eelsning "Erkin jamiyatda korporativ xayriya" (1956) asarlарини кiritib o'tsa bo'ladi [6]. Hozirgi kungacha KIM bo'yicha turli adabiyotlar, kodekslar va xalqaro turdag'i hujjalarni qabul qilib kelinmoqda.



Sovet davrida hamma narsa markaziy boshqaruv orqali bo'lgani bois bunday ilmiy yondashuvlar hamdo'stlik mamlakatlari hamda Respublikamizda XX asrning so'nggilarida amalga oshirila boshlandi. Bizda mahalliy olimlardan G'ulomov S.S., Qosimov G.M. va boshqalar tomonidan yozilgan "korporativ boshqaruv" (2013) darsligida axloqiy me'yorlar ishlataligan, chunki hali korporativ boshqaruv tushunchasi haqida fikrlar mavjud emas edi. D. Suyunov va boshqalar tomonidan yozilgan "Korporativ boshqaruv" (2021) darsligida KIMga alohida bob ajratilgan bo'lib, asosan, unda davlat xususiy sherikchilik bilan bog'liq holda o'rnanadi [12]. M. Sharipova o'zining tadqiqotlarida KIMning rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ahamiyati va o'rni, qo'llanilish doirasi, KIM bo'yicha chiqqan xalqaro huquqiy normalar, bu bo'yicha O'zbekistonda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar, xalqaro investitsiyalarning oshishiga bo'lgan qarashlar va tavsiyalar berib o'tgan [13; 14].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda nazariy fundamental, induksiya, diduksiya hamda taqqoslash usullari qo'llanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

1950-yillarda KIM haqida bahs yuritgan olimlar sanoqli bo'lgan bo'lsa, 1960-yillarga kelib ularning soni ortib bordi. Ayniqsa, KIM ta'rifini ochib berishga ko'pchilik harakat qildi. Bu o'n yillikni eng yaxshilaridan biri Keyt Devis bo'lib, u quyidagicha ta'rif bergan: "Ijtimoiy mas'uliyat tadbirkorlarning (kompaniyani) iqtisodiy va texnik (maqsad) chegaralaridan tashqarida qabul qilgan qarorlaridir va bir qancha to'g'ri qabul qilingan ijtimoiy mas'uliyatga doir qarorlar uzoq muddatlarda yaxshi iqtisodiy foyda keltiradi" [16].

X. Bouenning ta'rificha, "ijtimoiy mas'uliyat biznesning barcha ijtimoiy muammolariga yechim bera olmaydi, lekin u bir haqiqatni o'z ichiga oladi, ya'ni u biznesni kelajakka yo'naltiradi" [6]. KIMni rivojlanishi bilan birgalikda unga teskari bo'lgan qarashlar ham mavjud. Bulardan eng taniqilaridan biri Milton Fridman bo'lib, u quyidagicha ta'rif bergan: "Biznes uchun yagona mas'uliyat – bu daromad olib kelish". Bu shuni anglatadiki, har qanday boshqaruv uslubi, kompaniyaga faqat foyda (daromad) olib kelishi shart.

Bunday ta'riflар o'z davrida KIMning rivojlanish bosqichlaridan kelib chiqqan desak mubolag'a bo'lmaydi:

Patrick Murphy KIMni to'rt bosqichdan iborat deb ta'rif bergan,[15].

Bosqichlar	Davrlar nomi	Yillar
Birinchi bosqich	<b>Xayriya (filantropiya) davri</b> - kompaniyalar hamma narsadan ko'ra xayriya qilgan davr	1950-yillargacha
Ikkinci bosqich	<b>Xabardorlik (ogohlik) davri</b> — biznesning umumiy mas'uliysi va uning jamiyatdagi ishtiroki ko'proq e'tirof etilgan davr	1953-1967-yillar
Uchinchi bosqich	<b>Muammolarni o'rganish davri</b> - Kompaniyalar aniq muammolarga e'tibor qaratishni boshlagan davr. Shaharlarning qulashi, irqiy kamsitilishlar, atrof-muhit ifloslanishi va boshq.	1968-1973-yillar
To'rtinchi bosqich	<b>Mas'uliyat (Javobgarlik davri)</b> - KIM muammolarini yechishda boshqaruv va tashkiliy harakatlar. Bunda boshqaruv kengashining tarkibining o'zgarishi, korporativ madaniyatni o'rganish va ijtimoiy mas'uliyat to'g'risida ma'lumotlar e'lon qilish	1974 -1978 (hozirgacha)

Yuqorida ko'rganimizdek, Patrick Murphy so'nggi bosqich sifatida "Mas'uliyat" davrini berib o'tgan. Lekin R. Akerman, R. Bauer va boshqa olimlar tomonidan 1970-yillarda "korporativ ijtimoiy sezgirlik" davrini, S. Vartik, F. Koixan va D. Wud singari olimlar esa "korporativ ijtimoiy faoliyat (faoliik)" davrlari ekani haqida izohlashadi. 80-yillarga kelib, aniqroq aytganda, 1987-yil "Brutland hisoboti"da birinchi marta "barqaror rivojlanish" konsepsiysi jamiyatga taklif etildi va bu o'z o'rnda yangi davrni boshlab berdi [1]. 2015-yilda BMTda "17 ta barqaror rivojlanish maqsadlari"ning 2030-yilgacha bo'lgan rejasi ishlab chiqildi. Hozirgi kunga kelib yirik korporatsiyalar tomonidan taqdim etilayotgan KIMga doir har yillik "nomoliyaviy" hisobotlari o'z ichida ushbu maqsadlar bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni yoritib o'tmoqda.

## XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, ushbu maqlolada, asosan, KIMning rivojlanish tarixi, turli ko'rinishlari, xorijiy va mahalliy olimlarning fikr va mulohazalari, soha mutaxassislari tomonidan nechog'lik o'rganishlar



olib borilayotganligi ta'kidlangan. Ko'rishimiz mumkinki, KIMni ilmiy jihatdan o'rganish va amalga oshirilgan ishlar jahon va mahalliy olimlar o'tasida 60-70 yil farq bilan, ya'ni 2020–2021-yillardan ommalashib kelmoqda. Bu esa KIM bo'yicha amalga oshirilishi lozim ishlar hali juda ham ko'p deganidir. Mahalliy olimlar tomonidan KIMning investitsiyalar, mehnat resurslari (ishchi kuchi), atrof-muhit bilan bog'liqligini chuqurroq o'rganishini vaqt keldi deb hisoblash mumkin. Chunki hozirda respublikadagi korporativ boshqaruv qo'llanilgan kompaniyalar soni tobora ko'paymoqda, bu esa ularda korporativ boshqaruv nazariyasining so'nggi bosqichi "Korporativ ijtimoiy mas'uliyat nazariyası"ni taqozo etadi, bu ishnni o'z vaqtida amalga oshirmsligi kirib kelayotgan va keljakda kirishi kutilayotgan investorlarni boshqa mintaqalarga, mamlakatimizdagi yetuk mutaxassislarni esa KIM yaxshi rivojlangan chet el korporatsiyalariga o'tib ketishiga sabab bo'lishi mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Завьялова Е.Б. Корпоративная социальная ответственность: эволюция подходов и идей / Е.Б.Завьялова // Финансовый бизнес. – 2018. – №2 (193). – С. 26-31.
2. <https://repo.uum.edu.my/id/eprint/17561/1/120-ICAS2015%2020120-127.pdf>
3. Britannica T. Editors of Encyclopaedia (2024, March 25). Al-Azhar University. Encyclopedia Britannica. <https://www.britannica.com/topic/al-Azhar-University>
4. Ed(s). "al- Niẓāmiyya , al- Madrasa." Encyclopaedia of Islam, Second Edition. Edited by: P. Bearman , Th. Bianquis , C.E. Bosworth , E. van Donzel and W.P. Heinrichs. Brill, 2010, retrieved 20(03/2010)
5. Bayt al-Hikmah. In Esposito, J. (Ed.), The Oxford Dictionary of Islam. : Oxford University Press. Retrieved 20 Apr. 2024, from <https://www.oxfordreference.com/view/10.1093/acref/9780195125580.001.0001/acref-9780195125580-e-323>.
6. Carroll Archie. (2008). A History of Corporate Social Responsibility: Concepts and Practices. 10.1093/oxfordhb/9780199211593.003.0002. 21b
7. [https://en.wikipedia.org/wiki/Carnegie\\_library](https://en.wikipedia.org/wiki/Carnegie_library)
8. Johnson Peter J., Harr John Ensor (1988). The Rockefeller Century: Three Generations of America's Greatest Family. New York: Charles Scribner's Sons. ISBN 978-0-684-18936-9.
9. <https://link.springer.com/book/10.1007/978-1-4613-2919-0>
10. Murtazayeva R. O'zbekiston tarixi. Toshkent-2005. 225 b.
11. Muirhead S.A. & Conference Board. (1999). Corporate contributions: the view from 50 years. The Conference Board.
12. Korporativ boshqaruv. Darslik (2021) D.Suyunov, S.Elmirzayev
13. М. Шарипова. Корпоратив ижтимоий масъулият: ихтиёрийми ёки мажбурий? 2019 йил <https://www.uzanalytics.com/siyosat/3874/>
14. M. Sharipova. Korporativ ijtimoiy mas'uliyat to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar sonining ko'payishi garovimi? 2020 <https://review.uz/uz/post/korporativ-ijtimoiy-masuliyat-togridan-togri-xorijiy-investiciyalar-sonining-kopayishi-garovimi>
15. University of Michigan Business Review 1978-11: Vol 30 Iss 6.
16. Davis K. (1960). Can Business Afford to Ignore Social Responsibilities? California Management Review, 2(3), 70-76. <https://doi.org/10.2307/41166246>.
17. Corporate Social Responsibility: A Historical Perspective', in Marc J. Epstein and Kirk O. Hanson (eds.), The Accountable Corporation, vol. 3. Westport, Conn.: Praeger Publishers, 3–30.

# Yashil

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Shahzod Avilqulov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 9**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №5666955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

